


**BOSHLANG'ICH SINF YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING AQLIY
RIVOJLANISHI VA ULARGA CHET (FRANSUZ) TILI FANINI O'QITISHDA
KOMPYUTER TEHNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH, HAMDA UNING
PSIHOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7468676>

Saidova Lolaxon Maxammadjonovna

Andijon davlat chet tillari instituti katta o'qituvcisi.



ELSEVIER



Received: 20-12-2022

Accepted: 20-12-2022

Published: 22-12-2022

Abstract: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy rivojlanishi, ong va idroklarining shakllanganlik darajasini hisobga olgan holda fransuz tilini o'rgatish, hamda kompyuter tehnologiyalaridan foydalaniib dars o'tish haqida fikr yuritilgan.

Keywords: ko'nikma, muloqot, aqliy rivojlanish, idrok qilish, mustaqil fikr yuritish, multimedia, ro'lli o'yin...

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 20-12-2022

Accepted: 20-12-2022

Published: 22-12-2022

Abstract: В данной статье рассматривается преподавание французского языка и использование компьютерных технологий с учетом умственного развития учащихся начальных классов, уровня сознания и восприятия..

Keywords: умение, общение, умственное развитие, восприятие, самостоятельное мышление, мультимедиа, ролевая игра...

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 20-12-2022

Accepted: 20-12-2022

Published: 22-12-2022

Abstract: This article discusses the teaching of the French language and the use of computer technology, taking into account the mental development of primary school students, the level of consciousness and perception.

Keywords: skill, communication, mental development, perception, independent thinking, multimedia, role-playing game...

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Bugungi kunda ta'lrim tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi dunyoda ro'y berayotgan barcha voqealari hodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroflicha habardor bo'lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblanga xorijiy tillarni ham chuqur o'rganishlari uchun katta ahamiyat berilmoqda. Xozirgi kunda yurtimizdagi barcha ta'lrim, fan, madaniyat va ma'rifat muassasalari ta'lrim portali va internetga ulangan. Bu esa talim jarayoniga masofadan turib o'qitish usullarini,

o'quvchi yoshlar uchun axborot komunikatsiya xizmatlarining keng majmuini joriy etishni taqozo etadi

Kompyuter texnologiyasiga asoslangan aktiv o'qitish o'z ustida ishlash bilan uzviy bog'langan. O'z ustida ishlash, mustaqil bilim olishga harakat qilishni esa ichki motivasiya va bilim olishga qiziqishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bilim olish jarayonida doimo idrok qilish va mustaqil fikrlash o'ta muhim. Shuning uchun ham bilim olish jarayonida mustaqil ravishda kerakli informatsiyani topish, muammoli masalalarni tuzish va ularni ratsional yechimini izlash, olgan bilimlarni tahlil qilish va amaliyotda qo'llab yangi bilimlar olishga qaratilgan metod va texnologiyalardan foydalanish kerak.

Beshta umumiy didaktik metodlar mavjud bo'lib, ular o'qitish faoliyatini harakterini ifodalab beradi: ilyustrasion tushuntirish, reproduktiv, muammoli tushuntirish, qisman izlanuvchi, tadqiqot metodlari. Bu metodlar an'anaviy pedagogikada effektiv qo'llanib kelinmoqda. Bu metodlar ichida produktiv metodi asosiy o'rinni egallab, u o'quvchilarini aktiv ishtirok etishi bilan harakterlanadi. Ikki tomonlar aro komunikatsion tipidagi aktiv o'qitish metodi "ko'pchilik ko'pchilik" gruppasiga kirib quyidagilarga bo'linadi: ro'l o'ynash, diskussion grappa, forum, proek gruppalar va hk.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar endi o'zini shahs sifatida his eta boshlaydi. Shuning uchun ham o'quv jarayonini sifatini oshirish uchun o'quv faoliyatini individualizasiyalashtirish asosida olib borish kerak. Bunday o'quv usulini faqatgina elektron vositalar bilan ta'minlangan zamonaviy tehnologik ta'lim yordamida amalgalashish mumkin.

Ma'lumki kompyuter shaklidagi ta'lim hozirda deyarli barcha joylarda qo'llanilmoqda. Elektron vositalar yordamidagi ta'lim borgan sari rivojlanib natijada ta'lim yo'nalishida yangicha individuallashgan ta'lim tizimini yaratadi. Bu shunday ta'lim tizimi bo'ladiki bunda bilim olish uchun vaqt va makon tushunchasi birlamchi o'rnni yo'qotadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida oliy nerv faoliyati ya'ni fikrlash, hotira jarayonlari rivojlanishi davom etadi. Bunday rivojlanish hisobiga ruhiy faoliyatni kuzatish, idrok qilish kabi aspektlarini boshqarish osonlashadi. Bilim darajasini oshishi hisobiga 7-10 yoshli bolalar bemalol narsa-buyumlarni, to'liq tasvirlarni ajrata oladi. Noma'lum buyumlarni, belgilarni, o'simliklarni hech qiyinchiliksiz qaysi guruhga kirishini aytga oladi.

Masalan: "nimanidir shohi", "qaysidir mashina" kabi.

Lekin 1-2 sinf o'quvchilarida idrok qilishni to'liq shakllanmaganligi ko'zga tashlanib turadi, bu ularni hali o'rab turgan muhitni yetarlicha bilmasligidan kelib chiqadi. Masalan: yahshi bilmagan shaklni predmet nomi bilan atash: konusni tom deb, silindrni stakan deb. Yana boshlang'ich sinf o'quvchilarida hajm va yassilik

tushunchalarida chalkashliklar kuzatiladi, ya’ni aylana shaklni unda hech qanday hajm sifati keltirilmagan bo’lsa ham “shar”, “to’p” deb nomlash.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining bunday noto’g’ri idrok qilishiga yana sabab holatiy idrok qilishning saqlanib qolganligida. Ular to’g’ri chiziq deb faqat gorizontal holda yotgan chiziqni tushunishadi, agarda uni vertikal yoki qiyshiq holda o’tkazilsa uni to’g’ri chiziq deb idrok qilmaydi. Huddi shunday holat uchburchak shaklni idrok qilishda ham kuzatiladi.

Bu davrda o’yin faoliyatini tizimli vaqt bilan boglangan o’qish faoliyati egallaydi, bu davrda u ma’lum qiyinchiliklarga duch keladi. Ihtiyoriy diqqat, sezgi, idrok, hotira, tafakkur, nutq, ong, akl kabi jarayonlari faol tarzda rivojlanadi. Atrof dunyoga munosabati va harakteri shakllanadi. Uning hayotida birinchi eng katta o’zgarish – o’quv faoliyatiga nisbatan intellektual, emotsiyal tanglik yuz beradi. O’quv muassasa yoshiga o’tish uning faoliyati, muloqoti, boshqalar bilan munosabatida o’zgarishlar bilan bog’liq. Asosiy faoliyat o’qish, o’rganish bo’ladi, hayot tarzi o’zgaradi, yangi majburiyatlar, qoidalar yuzaga keladi, atrofga bo’lgan munosabat ham yangilanadi. Sezgi organlarining aniqligi ortadi. Muloqot doirasi kengayadi. Idrok qilishi barqaror emasligi va shakllanmaganligi, lekin kuchliligi va yangiligi, ziyrakligi bilan farq qiladi. Har kun unga qandaydir yangilik olib kelishini qiziqish bilan idrok etadi. Idrokning kuchsizligi emotsiya bilan to’ldiriladi. Unga suyangan holda tajribali o’qituvchilar maqsadga muvofiq eshitish va ko’rish, kuzatishga o’rgatadilar. Diqqati ihtiyorsiz, barqaror bo’lmaydi va hajmi chegaralangan bo’ladi. Shuning uchun boshlang’ich ta’lim jarayonida asosan diqqat madaniyatini rivojlantirish muhim. Shu bilan birga, o’quv muassasa hayoti unga ihtiyoriy diqqatni, irodaviy harakatlarni rivojlantiruvchi mashqlarni o’rgatadi. Barcha funksiyalar eng avvalo o’qish motivatsiyasi bilan, o’qishdagi yutuqlarga mas’uliyatlilik bilan birga rivojlanadi. Tafakkur emotsiyal-obrazlidan abstrakt mantikiyga qarab rivojlanadi. Bola birinchi shakllar, ranglar, ovoz, sezgilar bilan fikrlaydi, shu sababli ta’lim ko’rgazmali jihatdan kuchli tashkil qilinishi lozim. O’quv muassasa yoshida. boshqa jarayonlarga nisbatan aqlning kuchsiz funksiyalari faol ishga tushadi, aynan o’quv muassasasida aql boshqa hech qaerda rivojlanmagandek rivojlanadi. Bu yerda pedagog tajribasi, bilimi katta ahamiyatga ega. Tafakkur ularning nutqi bilan birga rivojlanadi. O’quv muassasa ta’limi nafaqat bolaning lug’at boyligini ko’paytiradi, balki o’z fikrini yozma va og’zaki bayon qilish malakasini ham o’rgatadi. Hotira ham katta ahamiyatga ega. Uning miyasi hali plastik bo’lgani sababli eslash qobiliyati kuchli buladi. Uning hotirasini ko’rgazmali-obrazli harakterga ega. Qiziqarli, aniq va yorqin ma’lumot hatosiz eslab qolinadi. Lekin ular o’z hotirasini bilan ishlay olmaydilar. Shu sababli pedagoglar o’z-o’zini nazorat qilish, tekshirish, takrorlash malakalarini o’rgatishlari lozim. O’quv muassasa yoshidagi bolaning shahs sifatida o’sishi kattalar va tengdoshlari bilan muloqot, faoliyatning yangi turlari va yangi munosabatlar

ta'sirida kechadi. Unda ijtimoiy hissiyotlar, ijtimoiy hulq-atvor (mas'uliyat, sinfdoshlar, do'stlik, o'zaro yordam) rivojlanadi. Ahloqiy sifatlar va ijobiy hususiyatlar rivojlanishi uchun katta imkoniyat yaratiladi. Ularning bo'ysinuvchanligi, ishonuvchanligi, taqlidga moyilligi, tarbiyaga beriluvchanligi shahsni rivojlantirish uchun yahshi imkoniyat beradi. Tashabbuskorlik, o'zaro faoliyat, musobaqani namoyon qiluvchi mehnat bilan o'yinning birga tashkil qilinishi yahshi natija beradi. Uning bu dunyoni bilishga qiziqishi, harakat faolligi, talabi - har tomonlama foyda keltiruvchi faollahuv bilan qondirilishi, ta'minlanishi lozim [3.66].

Har bir bola yoshlidan o'ta qiziquvchan bo'lib, u o'zini yangi olgan bilim va ko'nikmalaridan juda quvonib yuradi. Shuning uchun ularga beriladigan dars tushunarli va oson bulishi ya'ni ulardagi intiluvchanlikni so'ndirmasligi balki yanada oshirishi kerak. Dars sifatli, emotsiyal, asosiysi produktiv bo'lishi lozim. Mana shundagina olingan bilim bolalar ongida uzoq vaqt saqlanib qoladi va keyingi olinadigan bilimlar uchun mustahkam asos bo'la oladi. Hozirda O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirishdagi asosiy vazifalardan biri maktab shu jumladan boshlang'ich sinflar bilim olish jarayonini pedagogik amaliyotiga kompyuter texnologiyalarni kiritish va yangi qonuniyatlarini ishlab chiqish. Bu zamon talabi.

Ta'lim tizimini ahborotlashtirish, har bir o'qituvchi oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- Kompyuter bilan ishlash malakasiga ega bo'lish, kompyuterdan dars berish vositasi sifatida foydalanish metodikasini bilish/;
- Ko'payib borayotgan axborot oqimida orientir ola bilish;
- Informatsion komunikatsion vositalardan foydalanib axborotlarni to'plash, tahlil qilish, foydalanish malakasiga ega bo'lish;
- Boshlang'ich sinflarda informatsion komunikatsion texnologiyalardan foydalanish maqsad va vazifalari:
 - Boshlang'ich sinf o'quvchilarini intelektual salohiyatini oshirish;
 - Bilimini, fikrlash, idrok qilish faoliyatini shakllantirish;
 - O'quv jarayonini butunligini saqlagan holda individuallashgan uslubni shakllantirish;

Informatsion texnologiyalardan foydalanib dars jarayonini to'la o'zgartirish shart emas. Balki bu tehnoloiyalardan kerakli ravishda foydalanib o'quvchilar qiziqishini oshirish, bilim olish darajasi sifatini yaxshilash [5.102-105]. Bunday fanlarda kompyuter texnologiyalardan foydalanish pedagogning asosiy yordamchisiga aylanadi.

Elektron materiallar o'quvchilar o'quv faoliyatini oshiruvchi quyidagi uch hususiyatga ega:

- Informatsiya olish

- Informatsiyani amaliyotda qo'llash

- Olgan bilimlarni tekshirish

Elektron o'quv vositalari quyidagi hollarda sifatli deb hisoblanadi:

1. O'ta yuqori tezlikdagi qayta aloqani ta'minlasa

2. Kerakli informasiyani tezlik bilan topish imkonini bersa

3. Gipermatnli manbalarga ko'p marotaba murojaat qilinganda vaqtadan tejash imkonini bersa

4. Hikoya qilsa va modellashtirsa

Tayyor(standart) raqamli(sifravoy) resurslardan va prezintasiyalardan mavzuni o'rghanish jarayonini hohlagan bosqichida foydalanish mumkin.

- Dars boshida mavzuni o'rghanishga doir savollardan foydalanib, muammoli masalalar tuzib elektron vositalar orqali taqdim qilish;

- Elektron vositadagi vazifani tez-tezda takrorlab o'quvchilar bilimini oshirib borish;

- Mavzuni tushuntirish bosqichida mavzuga doir rasmlar, videoroliklar, ovozli yozuvlardan foydalanish;

- Mavzuni mustahkamlash bosqichida o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun ekranda vazifani qaytarib ko'rsatish bilan bir qatorda uni javoblarini ham ko'rsatib o'tish;

Prezentasiya o'qituvchi tomonidan oson foydalanib taqdim qilinuvchi manba asosida tayyorlangan bo'lishi lozim. Prezentasiya foni o'ta jumjimador bo'lib, shiriftlarni ko'rishga halaqit bermaydigan bo'lishdan va tekstlardan ko'p miqdorda foydalanishdan saqlanish kerak. Slaydlarni faqat demonstrasion ruhda emas balki asosiysi o'qitish harakterda bo'lishi kerakligini taminlash muhimdir. Bolalar diqqatini tortadigan animasiyalardan umuman foydalanmagan ma'qul.

Fransuz tili darsida kompyuter texnologiyasidan foydalanishdan asosiy maqsad:

- Bolalarni shu fanga nisbatan qiziqishini yanada oshirish;

- Bilimlarni yanada chuqurroq egallashiga erishish;

- Kompyuterdan foydalanish amaliyotini psihofiziologiyasini rivojlantirish;

Shuni alohida takidlab o'tish kerakki kompyuterdan foydalanib dars o'tish o'qituvchidan katta mehnat talab qiladi. Ya'ni u elektron vosita yordamida qanday dars o'tish kerakligini ishlab chiqishi, individual vazifalar va didaktik materiallar yig'ishi lozim. Buning uchun esa u ham kompyuter bilan ishlashni hamda fransuz tilidagi internet saytlarni ham juda yahshi bilishi, ulardan doimiy ravishda axborot olib turishi kerak [1.156-157].

Kompyuter yordamida dars o'tilganda, kompyuter o'qituvchi vazifasini bir qismini bajarib darsni qiziqarliroq o'tishiga sabab bo'ladi. Fransuz tilidagi jumlalarni ekrandagi fransuzlarning o'zidan eshitish albatta bolalar uchun maroqli va esda qolarlidir.

O'qituvchi dars davomida faqatgina fanga oid dasturlar, prezentasiyalar, multimedialardan foydalanib qolmasdan balki Microsoft Office Word da tuzilgan testlardan ham foydalinishi maqsadga muvofiq.

Boshlang'ich sinflarga fransuz tili darsini o'tishda o'qituvchi kompyuterdan mavzu bilan tanishtirish vaqtida foydalanish bilan birga mavzuni qanday o'zlashtirganligini baholashda ham foydalanishi ancha samarali usul hisoblanadi.

Lekin shuni yodda saqlash lozimki boshlang'ich sinf o'quvchilarini yoshini, yuqorida sanab o'tilgan idrok qilish, fikrlash, hotira jarayonlarini o'ziga hosligini hisobga olgan holda kompyuter oldida uzlucksiz o'tirishi 15 minutni tashkil qiladi. Agarda ko'rsatilgan vaqtdan oshirib yuborilsa bunday metodika o'z samarasini yo'qotishi va aksincha bilim olish jarayoniga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Colin, Jean-Paul-Mevel, Jean-Pierre, Dictionnaire de l'argot, Paris, Larousse, 1990.
2. Jalolov J. Cet tili ukitish metodikasi. -T:1996.
3. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnalogiya. -T.: O'z MU. 2003. 66 bet.
4. Usmonov A.I. Zamonaviy axborot tehnologiyalari asoslari. T., 2007 yil.
5. Взятышев В.Ф. Методология проектирования в инновационном образовании. М.,1995.